

SAID AHMAD HAJVIYOTINING ADABIY JARAYONDAGI O'RNI*Tolibjonova Maftuna**Namdu 1-kurs magistranti**[Tel:+998930594580](tel:+998930594580)*

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning hikoyalari, komediya va miniatyuralari xalqimiz qalbidan mustakam o'rin egallagan. Nafaqat xalqimiz qalbidan joy olgan, balki bu noyob asarlar adabiyotimiz xazinasini ham yetarlicha boyitadi. Said Ahmadning tanqidchi N.V.Vladimirova bilan bo'lgan suhbatida u o'ziga ustoz deb bilgan ijodkorlar haqida so'z yuritganini ko'rishimiz mumkin. "Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor hikoyalari o'zbek hikoyasining taraqqiy etishida haqiqatan juda katta xizmat qildi. Abdulla Qodiriyning ayniqsa, G'afur G'ulomning 30-yillarda yozgan hikoyalari menda katta taassurot qoldirgan. Shu hikoyalarning ko'plarini hozirgacha yoddan bilaman. Keyinchalik o'zbek hikoyachiligiga hozirgi zamon rus hikoyachiligi bilan tenglashib keladigan darajada ixchamlik va fikrning tiniqligini olib kirgan."¹

Abdulla Qahhor asarlari meni o'ziga maftun qilib qo'ydi. Umuman men hikoyachilikdagi ustozlarim deb Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulomni, Abdulla Qahhorni bilaman" Ana shunday ulug' ijodkorlarning an'alarini davom ettirgan yozuvchi o'zining asarlarida inson obrazini mukammallashtiradi. Uning qahramonlari qandaydir shoirtabiat, murakkab emas, balki juda tabiiy va oddiy insonlardir. Ularning o'zlarini tutishlari, gap-so'zlari, qiliqlari, xattoki orzu-istaklari ham tabiiy. Bu odamlar hayotlarida jinday yutuqqa erishishsa ham chin dildan quvonadilar, agarda ma'lum to'siqlarga duch kelishsa, qayg'urib, iztirob chekadilar. Shuning uchun bu qahramonlarning har bir harakatlari, u xoh hissiy bo'lsin, xoh jismoniy, tabiiy va ishonaarli tuyiladi.

Samimiy tasvirlangan yumoristik obrazlar Said Ahmad hikoyalarining o'ziga xos, betakror tarovatini ta'minlaydi. Ularni bugungi kun kitobxonlari uchun qadrlil qiladi. Adib dastavval hikoyanavis sifatida taniladi. Uning birinchi to'plami – 1940-tilda "Tortiq" nomi bilan yuzaga keladi. Ijodini shunday boshlagan yozuvchining hikoyalarida hajviy ruh asosiy o'ringa chiqdi. "Cho'l shamollari", "Cho'l burguti" kabi turkum hikoyalari, "Kukuchka", "Kolbasa qori", "Hindcha o'yin", "O'rik domla" kabi asarlari shular jumlasidandir. Ushbu hikoyalardagi obrazlar orqali yozuvchi xalqimizga xos bo'lgan betakror so'z o'yinlari, askiya va mubolag'alari asar tilini nihoyatda jozibador qiladi. Uning "Begona", "Mening do'stim Boboyev", "Xanka va Tanka" singari komediyalarida insonlar xarakterida uchrab turuvchi manmanlik, kibr-

¹ (<https://azkurs.org/taqdimot-17-mavzu-men-sevgan-asar-abdulla-qodiriyning-otgan-ku.html>).

u havoga berilish, ig‘vogarlik singari yomon illatlar mahorat bilan fosh etiladi. Said Ahmad kichik hajviy asarlari bilan o‘zbek radio va televideniya quruvchi miniatyuralar teatriga asos soldi. Adib bundan tashqari “Farmonbibi arazladi”, “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Kuyov” kabi komediyalari bilan ham katta shuhrat qozondi. Uning hajviyot bobidagi xizmatlari alohida e‘tirofqa sazovor. Chunki u ijodi davomida o‘nlab hajviyot to‘plamlarini e‘lon qilib, o‘zbek milliy hajviyotining chinakam ustasiga aylandi. Hozirgi kunda o‘zini shu yo‘nalish bo‘yicha sinab ko‘rmoqchi bo‘lgan shoir yoki yozuvchi borki, ularning bari Said Ahmadni o‘zlariga ustoz deb biladilar. Adibning “Xandon pista” to‘plami uning hajvnavis sifatida mohir ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

U o‘zining hajviy hikoyalari rivojlanishimizga to‘siq bo‘layotgan yaramas urf-odatlar ustidan oshkora kuladi, ma’naviy masalalarni o‘rtaga qo‘yadi. “Lampa shisha”, “Xanka va Tanka” singari o‘nlab hikoyalari yuqoridagi fikr-mulohazalarimizning dalilidir. Said Ahmad tabiatidagi lirik va yumoristik hislat yozuvchining tasvir uslubiga, asarlariga ko‘chgan desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatov yozuvchi haqida shunday fikrlar bildiradi: “Said Ahmad ijodiga nazar tashlaganda bir-biri bilan bog‘liq ikki yo‘nalishni ko‘rish mumkin. Said Ahmad – ham lirik, ham yumorist yozuvchi”.

Said Ahmad hajvning hayotdagi o‘rni va xizmatini ham to‘g‘ri ko‘rsatadi: “Hajv hayotimizni bezaydigan, ruhlarimizni yengillatadigan va shu bilan birga hayotimizdagi illatlarni turtkilab, yo‘ldan chiqqanlarni ko‘pchilik orasida po‘stagini qoqadigan g‘oyaviy qurol hamdir”. Kulgisiz hajviy asarlarni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Biroq, bu asarlarni tekshiruvchi kulgichilik nazariyasi haqida barmoq bilan sanarli ilmiy tadqiqotlar qilingan. Adabiyotshunos U.Normatov bilan suhbatda Said Ahmad shunday deydi: “Hajvchi biz yaratamiz, ammo hajv haqida, uning adabiy tur sifatida hozirgi zamon adabiyotida tutgan o‘rni qay darajada mahorat bilan yozilgan, yozilmagani to‘g‘risida sizlar gapirishingiz kerak”. Darhaqiqat, hajviyotdagi janrlar, ularning tarixi, rivojlanishi, tabiati borasida juda ko‘p ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zarur. Ulug‘ satiriklar va yumoristlar komizmning obyektiv hayotiy ildizlari mavjudligini qayta-qayta ta’kidlaganlar.²

Voqelikning o‘zidan qidirish kerakligini, shuningdek, voqelikni chuqur o‘rganish uchun yuksak badiiy mahoratga ega bo‘lish zarurligini ta’kidlaganlar. Said Ahmad ham yumorist, ham epik, ham lirik, ham satirik bo‘lganligidan uning asarlari uslubiy va janriy rang-barangligi bilan ajralib turadi. Biroq Said Ahmad o‘z tabiati bilan yumorga boy san’atkor. U har bir narsadan hech kim ko‘rmagan va payqamagan kulgili hodisalarni, inson harakatidagi qiziq holatlarni tezda ko‘radi va undan ma’noli kulgi chiqara oladi. Bu xususiyat uning barcha janrdagi asarlarida yaqqol ko‘zga

² Said Ahmad. Saylanma. Uch jildlik. Uchinchi jild. Toshkent, 1982. 558-bet.

tashlanadi³. Uning yumoristik mahorati lirik va ruhiy tasvirlash mahorati kabi yozuvchi ijodining tom ma'nodagi zamonaviyligidan, o'ziga xosligidan tug'ilgan. Said Ahmadning hajvchilik faoliyati haqidagi eng yaxshi bahoni G'.G'ulom bergan edi: "Kuni kecha bir dasta "Mushtum"ni qo'ltiqlab mening uyimdan Abdulla Qahhornikiga, unikidan chiqib menikiga qatnab biror jo'yali maslahat qidirib yurgan Said Ahmad bugungi kunda baquvvat satirik yumorist bo'lib yetishdi". Ustozlari ishonchini oqlay olgan Said Ahmad yumordan keng foydalanishda o'ziga xos yo'ldan borib, o'z uslubini yaratdi. Jonli xalq tilidan oziqlanish uning yumorini xalqqa yaqinlashtirdi, ta'sir kuchini oshirdi, o'zbekona milliy kulgini yaratdi.

Shoir bu bilan o'zbek hajviyotiga sermazmun yumorni olib kirdi, uni boyitishga xizmat qildi. Bu kulgi yozuvchi uslubini, tabiatini belgilovchi bosh xususiyatlardan biriga aylandi. Kulgi vositasida muhim ijtimoiy-axloqiy masalalarni o'rtaga qo'yish, hayot haqiqatini ayta olish mumkin. Said Ahmad kulgini san'at darajasiga ko'tardi va o'z ijodida bunga erishdi.⁴ Shu tufayli uning asarlarida samimiy lirizm bilan quvnoq komizm qo'shib ketib, bir-birini to'ldiradi va hayotni mukammalroq aks ettirishga yordam beradi. Yozuvchi ijodida yumor ayniqsa, bo'rtib ko'rinadi. Buning bir qancha obyektiv va subyektiv sabablari ham bor, albatta. Yumorist hayot hodisalarini aks ettirar ekan, satirikka nisbatan keng imkoniyatga ega. Yumor tasvirlanayotgan hodisaning real ko'rinishini o'zida ko'proq saqlaydi, hodisa va uning turli ko'rinishlarini har tomonlama tasvirlaydi.⁵ Chunki satira ijobiy hodisalarni o'zining obyektini qilib ololmaydi. Yumor esa ham ijobiy, ham salbiy voqea-hodisalarni kulgili qilib tasvirlash imkoniyatini beradi. Yumorda hayotiy dalillarni hajviy qayta ishlash satiraga nisbatan boshqacha. Satirada u tasvirlanayotgan hodisaga nisbatan salbiy histuyg'uni, xususiyatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Kiyimdagi, nutqdagi kamchiliklar, kulgili yurishturishlar, qo'l bilan qilinadigan imo-ishoralar hodisaning umumiy negativligi fonida beriladi. Satirik tasvirda eng oddiy narsalar ham salbiylikni, inkorni kuchaytirishga xizmat qiladi. Yumorda esa, aksincha, yumoristik lavhalardagi, obrazdagi komizm – bu hodisaning umumiy ijobiyligi fonida berilayotgan detallardir. Yumor, ba'zan yumor bo'lmagan obrazlarning hajviy qirralari, personajlarning ichki yoki tashqi ko'rinishlariga tegishli xususiyatlari turli tuman shakllarda berilishidan qat'iy nazar, undagi ijobiy taassurotni buzmaydi.

Hajviy asarlar asosan ikki xil yo'nalishda bo'ladi: Satira va yumor. Satira so'zi yunonchadan olingan bo'lib, komiklik turi, tasvir obyektini ayovsizkulgivositasi orqali anglash degani. U voqelikni badiiy aks ettirishning o'ziga xos usuli bo'lib, unda jamiyatdagi bema'ni, asossiz, noto'g'ri hodisalar illatlar fosh qilinadi. Voqealarning

³ Ushbu asar. 589-bet.

⁴ G'.G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 11-tom, Toshkent, 1989, 587-bet

⁵ G'.G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. II tom, Toshkent, 1989, 323-bet.

real ko‘rinishini o‘zgartirib, mubolag‘a qilish, keskinlashtirish va shartlilikning boshqa ko‘pgina turlari yordamida yaratilgan obraz orqali satirik obrazga “ishlov” beriladi. Yumorda esa yengil tanqid, hazil ruhi yetakchilik qiladi. Shu xususiyati bilan u satiradan farq qiladi. Badiiy adabiyotga mansub bunday asarlarda yozuvchi ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi, xususan ayrim odamlardagi ba’zi nuqsonlar ustidan kulib, uni tanqid qiladi. Satirada yumor unsuri bo‘lganidek, yumorda ham satiraning unsurlari bor.

Said Ahmad har ikki yo‘nalishda ham birdek qalam tabratgan. Uning “Qoplon” hikoyasi satiraning yetuk namunasi hisoblansa, “Sobiq” hikoyasi esa yumorga boy asardir. “Qoplon” hikoyasida kishilardagi hushomadgo‘ylik, laganbardorlik, o‘z manfaati yo‘lida andishaga ham bormay surbetlarcha ish tutishi, kishilarni mansabiga qarab munosabat ko‘rsatishi kabi illatlar tanqidi aks etgan. Bu hikoyadagi Qurbonboy obrazi misolida yozuvchi o‘zini hali tanimagan rahbarlar pinjiga kirishning nozik yo‘llarini topib olgan va o‘zining laganbardorligidan orlanmaydigan, oriyatsiz bir shaxning qiyofasini ko‘rsatib beradi. Sobiq hikoyasida yozuvchi jamiyatimizda halol kishilarning xattiharakatlarida paydo bo‘layotgan dabdababozlik, nozarur yumushlarga chalg‘ib, kulgili vaziyatlarga tushib qolish kabi nuqsonlar ustidan yengil kuladi.

Said Ahmad ijodida hajviy asarlarning ham salmog‘i katta. Umuman, hajviy – yumoristik talqinga moyillik yozuvchi ijodining ajralmas bir bo‘lagini tashkil etadi. Xatto, tamomila boshqa yo‘nalishdagi asar – “Ufq” da ham yumor singdirilgan sahifalar kam emas. Yozuvchining hikoyachilik faoliyatida esa bunday asarlar alohida bir yo‘nalish hisoblanadi. Uning asarlarida kulgining hamma turi – quvnoq xanda, yengil tabassum, beozor hazil – mutoyibadan tortib kinoya- kesatik, masxara va g‘azabli qah – qahagacha uchraydi. Lekin, uning kulgisi ichida yumoristik kulgi alohida ajralib turadi. Yozuvchi tabiatan lirik bo‘lganidan hajviyotda ham lirikligicha qoladi, hajviyalarida ham lirik jo‘shqinlikni saqlaydi. Quvnoq, hayotbaxsh kulgi zaminida ham hayotdagi kam – ko‘stlarni qoralash mavjud. Buni e‘tibordan soqit qilib bo‘lmaydi. Shunday bo‘lsa – da , u asosan, hayotni, insonni ulug‘lashga karatilgan. Said Ahmadning ko‘pdan- ko‘p hajviyalari, turkum hikoyalaridagi qator personajlar talqini shunday yumor bilan sug‘orilgandir. Xattoki, “Xanka bilan Tanka”, “Mening do‘stim Babayev”,

“Lali badaxshon”, “Oshqovoq”, “Musiqali voqea” kabi hajviyalarida tanqid tig‘i hiyla o‘tkir bo‘lsa –da, ularda quvnoq kulgi, hazil-mutoyiba hal kiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Said Ahmad “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasida yumorni g‘ayri tabiiy shaklda yana-da ta’sirliroq ifodalagan. Uning kulgisi shaxsning jismoniy kamchiliklari ustidan masxaraomuz, ta’na aralash kuluvchi satiralardan o‘zining samimiy ruhi, benish yumori bilan ajralib turadi, shuning uchun ham qahramonlar orasidagi iliq munosabatlarga unchalik rahna solmaydi. “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasining

ayrim badiiy xususiyatlarini o'rganish jarayonida asar tilining samimiy kulgi va yumorga boyligida yozuvchi mahoratining o'ziga xosligi kuzatiladi.

„Qoplon“ hikoyasi satirik asarning yaxshi na'munasi bo'lib, kishilardagi xushomadgo'ylik, laganbordorlik, o'z manfaati yo'lida andisha mulohazaga bormay surbetlarcha ish tutish, odamlarning amal kursisiga qarab munosabat ko'rsatish kabi yaramas illatlar tanqidiga bag'ishlanadi. Hikoyadagi Qurbonboy obrazi misolida yozuvchi o'zini hali tanilmagan rahbarlar pinjiga kirishning nozik yo'llarini to'plab olgan, hech bir isilohasiz laganbardorligini oshkora ko'rsatib, xo'jayinning polini yuvib, gilamini ham qoqib berishdan orlanmaydigan, vaqti kelganda shartta yangi boshliqqa xizmat qilib ketaveradigan oriyatsiz, ablah bir shaxs qiyofasini ko'rsatib beradi. Tillayev ham uning xotini ham Quronboyning kimligini anglamay, ularga qilib yurgan xizmatini o'zlaricha yaxshilikka yo'yib yuradilar. Bu amal vaqtinchalik vazifa uchun qilinayotgan makkorlik ekaninini tushunmaydilar. Shu bois, Qurbonboyga ixlosi oshib Tillayev uni mashina yuvuvchidan garaj mudiri muovini vazifasiga ko'taradi, uyi tomini yopib olishi uchun anchagina shifer tunuka tushurib beradi. Qurbonboy esa ishi bitguncha girdikapalak bo'lib, har qanday mayda — chuyda oilaviy yumushlarini orlanmay bajarib, yangi boshliq tayinlanishi bilan Tillayev xanodonidan batamom yuz buradi. Xushomadining asosiy vositasi bo'lgan it „Qoplon“ni olib ketib, yangi rahbarga ham xuddi avvalgiday alfozda taqdim qiladi. Uning surbetligi shuqadar kuchliki, Qurbonboy Tillayevni yangi boshliqnikida ko'rib qolganida, hatto uyalmaydi ham. Direktorning charm to'nini artib turaveradi. Hatto it Qoplan eski xo'jayinini tanib, dumini likillatib erkanadi. Hikoya so'ngida Tillayev Qoplonni ko'rib „Bu itni taniyman“ desa-da, achchiq istehzo bilan aytilgan bu so'zlarni asli Qurbonboyga qarab qo'yib aytadi. Demak, „it“ deb Qurbonboyni nazarda tutadi. Yozuvchi bu bilan Qurbonboylar kabi buqalamun kimsalar, ablah odamlarni jamiyatda, insonlar orasida o'rni bo'lishi kerak emas, degan g'oyani ilgari suradi.

“Sobiq” Said Ahmadning hajviy hikoyasidir. Hikoya SSSR davrining obro'parastlik g'oyalarini qoralaydi. Oddiy paxtakorning turli xil kolxoz raislari, mehmonlar bilan uchrashuvga chiqishi uni paxta terishdan ko'ra shuhratparastlikka berilib ketishiga sabab bo'ladi. Said Ahmadning yana bir achchiq, alamli kulgudan yiroq hajviy, sof yumoristik hikoyasi “Sobiq” deb nomlanadi, Bunda yozuvchi voqeani hikoya qahramonining o'z tilidan hikoya qilarkan, jamiyatimizda, halol kishilarning hatti harakatlarida paydo bo'layotgan dabdababozlik, nozarur yumushlarga chalg'ib, kulguli vaziyatlarga tushub qolish kabi nuqsonlar ustidan yengil kuladi. Katta maqsadlar yo'lida intilayotgan yaxshi bir mehnatkash insonni asrash avaylash uning kucidan oqilona foydalanish, har bir odam o'z o'rnida bo'lib, o'z vazifasini sidqidildan bajarish kabi masalalar hajviy yo'sinda tasvirlangan vaziyatlar orqali anglatiladi. Turg'unlik zamonlarida sho'rolar davrida har narsani mafkuraga bog'lash odat tusiga kirgan edi. Hikoya qahamoni ham paxta terishda jonbozlik ko'rsatib, hech

kutilmaganda dabdababozlikning nishoniga aylanadi. Eng ilg'or paxtakor deb, asosiy ishini yig'ishtirib, turli kerak-nokerak majlis, kengash, yig'ilishlarga borishga majbur bo'ladi. Muallif o'z oldiga ayni shu narsani maqsad qilib qo'ygan edi. Manfaat uchun har maqomga yo'rg'alovchilardan kulish kitobxonni shu xildagi hatti-harakatlardan tiyib turadi. "Sobiq" hikoyasida esa qahramon o'z hatti-harakati, qilg'iligi bilan emas, balki tushib qolgan vaziyati tufayli kulguga duchor etilgan. Chunki boshqalardan ko'proq paxtaa terib ilg'or bo'lganigi uning aybi emas. Lekin u yashayotgan sharoit, jamiyat tartibi shundayki, tuppa- tuzuk odam o'zi istamagan va hohlamagan holda illatlar girdobiga tushishi ham kulguga mahkum bo'lishi mumkin. Bor yo'g'i bir necha kungina paxta terib mavsumning qolgan vaqtini faqat turli- tuman yig'ilishlarda faxriy mehmon bo'lib qatnashish bilan o'tkazib yuborgan mexanizator yigit tushib qolgan vaziyatdan kulasiz. Lekin bu kulgu hamdardlik kulgusi. Chunki qahramonning o'zi ham vaziyat iskanjasida qurbon. Bu- bizning sobiq jamiyatimiz uchun oddiy holat edi. Shuning uchun ham, hikoyadagi kulgining zahri illati odamga emas, balki illatning o'ziga qaratilgan. Satirik va yumoristik asarlarda kulgu uyg'otadigan badiiy vaziyat yaratish uchun mubolag'a, kichraytirish, kuchaytirish singari tasvir vositalaridan keng foydalaniladi. Hayotda "Sobiq" hikoyasidagi singari bur mashhur mexanizatorga o'shancha keraksiz yuk ehtimol ortib ko'yishmas. Ammo ko'p jihatdan shunga yaqin keladigan holatlar borligi ayon.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бозоров О. "Узбек адабиетида епистоляр жанр тараккиети". Макола, Qashqadaryo.187- б.
2. Воқижон То'хлиев. Т. Shermurodov, Sh. Isayeva. Adabiyot (majmua).-Т.: Bayoz, 2015.- 640-bet.
3. Бахтин. М.М. Литературно-критические статьи.-М.: —Художественная литература, 1986.
4. Davronova Sh."Nazariy poetika". Ma'ruza matnlari. Buxoro:.-2020y.
5. Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekchanizohli lug'ati. – Т.: O'qituvchi, 1989.
6. Jimjitlik. Т., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1988.
7. Жаҳон адіблари адабиёт ҳақида. – Т.: —Маънавият, 2010.
8. Jamolova S. Mutolaa sehri. Teletype. 2020y.
9. Жаҳон адіблари адабиёт ҳақида. – Т.: —Маънавият, 2010.
10. Normatov U. Nasrimiz ufqlari.-Т: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974